Tahlil jarayonidan kelib chiqib internet turli xil jamiyatdan holi faoliyat turlari, birinchi navbatda ekstremizm uchun imkoniyatlar yaratadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ayni kunlarda axborot texnologiyasining ta'sirini har bir sohada ko'rishimiz mumkin bo'lib bormoqda, ayniqsa bu jinoyatchilikning jadal sur'atlarda takomillashishiga sabab bo'lmoqda.

Ekstremizm bilan bog'liq sodir etiladigan jinoyatlarning asosiy qismi bugungi kunda aynan axborot texnologiyalari va internet tarmoqlari orqali sodir etilib kelinayotganligi unga qarshi kurashishni yanada qiyinlashtirib bormoqda. Sir emaski, axborot-texnologiyalari (shu jumladan, "Internet" tarmog'i) ayni paytda insoniyat hayot tarzini yengillashtiribgina qolmay, unga bir qator xavf-xatar tug'diradi. Axir internet foydalanuvchilari orasida ekstremistik

g'oyalar va qarashlarning tashuvchilari va tarqatuvchilari borki, ularning ta'siri har qanday odamga sezilishi mumkin. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bir qatorda u bilan bog'liq bo'lgan sohalar ham o'z o'rnida ma'lum bosqichlarga ko'tarildi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, internet tarmoqlaridan to'g'ri yo'lda foydalanish bilan bir qatorda undan jinoiy maqsadlarda, ya'ni boshqa shaxslarning ma'lumotlarini o'g'irlash, yolg'on xabar tarqatish, kiberhujumlar uyushtirish, yashiringan muloqotlar o'tkazish va boshqa bir qancha salbiy holatlarda foydalanish holatlari yuzaga kelmoqda.

So'nggi o'n yillikda faol rivojlanish tufayli internet tarmog'ining dunyo segmentida terroristik va ekstremistik tashkilotlar tomonidan o'z targ'ibot maqsadlarida tobora ko'proq qo'llanayotganligini ko'rmoqdamiz. Bu borada mutaxassis Y.S. Panfilova "Internet saytlarini nazorat qilish imkoniyatining zaifligi buzg'unchi oqimlarga qarshi kurashishni murakkab va qimmatga tushirayotgani vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda", deya fikr bildirgan (Panfilova, 2014). Ilmiy hamjamiyat va amaliyotchilarning kibermakondagi ekstremistik va terroristik tahdidlarni aniqlash, zararsizlantirish va oldini olish masalalariga jiddiy qiziqishiga qaramay, xalqaro va milliy qonunchilikda "kiber-ekstremizm" va "kiberterrorizm" kabi universal tushunchalar mavjud emas. Bizning fikrimizcha, kiber-ekstremizm deganda "axborot texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan ekstremistik faoliyat, ijtimoiy-psixologik va destruktiv ta'sir ko'rsatish shakllari bilan bog'liq bo'lgan, natijasi ommaviy va noqonuniy maqsadlarga erishishga qaratilgan faoliyat" deb tushunish lozim deb hisoblaymiz. Internet ijtimoiy tarmoqlarining butun dunyo aholisining katta qismini egallab olganligi, ekstremistik tashkilot vakillariga o'z maqsadlariga erishishlarida keng imkoniyat ochib bermoqda.

Internet tarmoqlaridan foydalanish borasidagi statistik ma'lumotlarga qaraganda Statistika agentligining 2024-yil sentyabr oyidagi ma'lumotlarida O'zbekistonda 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, internet tarmog'iga ulangan abonentlar soni 30,1 milliontani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 12,5 foizga oshgan. Eng ko'p abonentlar soni Toshkent shahrida – 6,3 mln bo'lsa, eng kam abonentlar soni Sirdaryo viloyatida – 0,7 millionni tashkil etgan (Akulina & Tarlo, 2003).

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, internet tarmoqlaridagi ekstremizm borasidagi ma'lumotlarni tahlil qilib chiqib, kiber-ekstremizmni "internet tarmoqlaridagi ekstremizm"ning kichik turlaridan biri deb hisoblab, uning quyidagi alohida parametrlarini ta'kidlab o'tish joiz deb topdik: 1) shaxssizlik, anonimlik; 2) axloqsizlik (ma'naviy-axloqiy makonning parcha-parcha ishlashi); 3) radikalizm; 4) antisotsiallik (nizolarni keltirib chiqaradigan makonni yaratadi); 5) institutsionallik (marjinal makon darajasida); 6) siyosiy va huquqiy tafakkurning buzilishi; 7) natijalarning noqonuniyligi.

Yuqorida tadqiqotlari va ilmiy ishlari keltirilgan olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, Internetdagi ekstremizmning quyidagi xususiyatlarini sanab o'tishimiz mumkin: ekstremistlar tomonidan kompyuter texnologiyalari yordamida yaratilgan diniy ekstremistik xarakterdagi ma'lumotlarning virtual xarakterga ega ekanligi; diniy ekstremistik mazmundagi ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlarning cheklanmagan auditoriyasiga tarqatilishi; din niqobi ostidagi ekstremistik tuzilmalarning vakillari anonimlikni saqlagan holda Internetga dunyoning istalgan joyidan ma'lumot joylashtirishi mumkinligi; ekstremistik guruhlar tomonidan alohida multimedia vositalaridan foydalanib, Internetda tarqatish uchun maxsus materiallar tayyorlayotganligi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, DET tarqatayotgan ma'lumotlarning aksariyati diniy manbalarni noto'g'ri talqin qilishga asoslangan. Ayollar jinoyatchiligi umumiy



jinoyatchilikning tarkibiy qismini ifodalab, tarixiy o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan hodisadir. Ayollar jinoyatchiligi faqat o'zigagina xos xususiyatlarga ega hodisa sifatida ayolning jamiyatdagi o'rni va uning psixofizik xususiyatlari bilan o'zaro bog'langan.

Ayollar jinoyatchiligi deganda muayyan hududda, ma'lum vaqt mobaynida ayol jinsidagi shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yig'indisi tushuniladi.

Zamonaviy ayollar jinoyatchiligi quyidagi xususiyatlarni namoyon qilishi bilan ajralib turadi:

1. Ayollar jinoyatchiligining umumiy o'sish tendensiyasi alohida olingan bir davrda birmuncha kamayganiga qaramasdan oshib borishi qayd etilmoqda. Kriminologlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, sodir etilgan jinoyatlarda ayollar sonining o'sish sur'ati erkak jinsiga mansub jinoyatchilar ko'rsatkichlaridan o'zib ketmoqda.

2. Ayollar jinoyatchiligi yuqori darajadagi latentlik xususiyatiga ega – 47–54 foiz (Chernysheva, 2007).

3. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, ayollar jinoyatchiligi ko'proq uyushganlik xususiyatiga ega. Sodir etilgan jinoyatlar solishtirma og'irligida uyushgan guruhlar tarkibida ayollar ulushi 10 foizga ortmoqda. Guruh tarkibida sodir etilgan ko'pgina jinoyatlarda ayollar tomonidan oldindan kelishuv mavjud bo'lgan, taxminan har uchinchi jinoyat, ya'ni guruh tarkibida sodir etilgan jinoyatlarda ayollar ishtiroki 40 foizgacha o'sganligini rad etib bo'lmaydi (Sukharev & Girko, 2005).

4. Ayollar tomonidan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilish tendensiyasi faol saqlanib qolmoqda (Malkov, 2006).

5. Ayollar jinoyatchiligi tarkibida, xuddi avvalgidek, hozir ham mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar hamda diniy ekstremizm bilan bog'liq qonunbuzarliklar salmoqli o'rin egallab kelmoqda (Shiyan, 2007).

6. Ayollar jinoiy faoliyatining o'sishi ayniqsa iqtisodiyot sohasida ortib borishi kuzatilmoqda.

Jumladan, terrorizm, tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan terrorchilik harakatlari to'g'risidagi ma'lumotlar va faktlarni xabar bermaslik, terrorizmni moliyalashtirish, terrorchilik faoliyatini amalga oshirish maqsadida o'quvdan o'tish kabi jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Shunga qaramay, bu muammo hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

Ayollar jinoiy xulq-atvori uchun bank faoliyati sohasida va qimmatli qog'ozlar bozorida noqonuniy faoliyat xos bo'lib qolmoqda.

Ayollar jinoyatchiligi tuzilishida diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi ustunlik qiladi. Ushbu holat ayollar va erkaklardagi jismoniy kuchning turlichaligi va ijtimoiy rollarning har xilligi bilan tushuntiriladi (Abdurasulova, 2016).

Shu bilan bir qatorda, ayollar jinoyatchiligining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida Q.R. Abdurasulovning quyidagi fikrlari ham diqqatga sazovor: "Erkaklar jinoyatchiligidan farq qiluvchi ayollar jinoyatchiligining xususiyatlari haqida quyidagilarni aytish mumkin (Abdurasulova, 2006):

birinchi xususiyati shundaki, ayollar soni mamlakatdagi erkaklardan ko'p bo'lishiga qaramasdan, ayollar jinoyatchiligi erkaklarnikiga nisbatan bir necha marta kam va ilgari ham shunday bo'lgan;

ikkinchi xususiyati ayollar jinoyatchiligida ro'y berayotgan o'zgarishlar bilan erkaklar jinoyatchiligidagi o'zgarishlar bir xil emas. O'zgarishlar umuman va ayrim jinoyat turlari bo'yicha ham mos kelmaydi;

uchinchi xususiyati – ayollar jinoyatchiligi o'z tuzilishiga ko'ra erkaklar jinoyatchiligini takrorlamaydi va undan miqdor jihatida bilangina emas, balki sifat ko'rsatkichlariga ko'ra ham farq qiladi.

Umumiy jinoyatchilikka ayollar jinoyatchiligi asosan o'zigagina xos bo'lgan jinoyat turlarini sodir etish bilan hissa qo'shadi. Bu jinoyatlarning sodir etilishi ma'lum ma'noda ba'zi vaziyatlar, ma'lum mikromuhitda, muayyan vaqtda shakllangan ayollarning xulq-atvori bilan bog'liqdir.

Ayollar jinoyatchiligida ro'y berayotgan o'zgarishlarni o'rganish birinchi navbatda:

- a) ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning statistik qonuniyatlarini;
- b) ayol – jinoyatchiga kriminologik tavsif berishni;
- d) ayollar jinoyatchiligi tuzilishini aniqlash imkonini beradi" (Abdurasulova, 2006).

Ayollar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning kriminologik tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar jinoyatchiligi o'zgarish emas, balki hayotning turli sohalaridagi o'zgarishlar, albatta, uning tuzilishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi va u ilgari o'zida bo'lmagan xususiyatlarni kasb etib boradi.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatchilik holati – bu muayyan davr va hududda ayollar ishtirokida sodir etilgan shu turdagi jinoyatlar hamda ularni sodir etgan xotin-qizlar majmuidir.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatchilik tuzilmasi – bu ma'lum bir davr va hududda ayollar ishtirokida sodir etilgan diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarning ular tomonidan sodir etilgan umumiy jinoyatlar nisbati, ya'ni mazkur toifadagi jinoyatchilikning ichki elementlari tarkibini anglatadi.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatchilikning tuzilishini aniqlash uchun muayyan formula asosida hisoblash talab etilmaydi, oddiy statistik ko'rsatkichlarda ushbu tuzilishni anglab olish mumkin.

Masalan, 2024-yilda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar 686 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 244¹-moddasi bo'yicha respublikada jami 519 tani tashkil etadi. Mazkur holat 2025-yilning 6 oyi davomida jami 574 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 431 tasi 244¹-modda tarkibidagi jinoyatlarni tashkil etadi. Fuqarolarga millati, irqi, dinidan qat'i nazar, teng huquqlar qonun orqali kafolatlangan.

Ammo tergovga qadar tekshiruvlar natijalariga ko'ra qo'zg'atilgan ishlarda yuqoridagi moddalarni kvalifikatsiya qilishda biroz qarama-qarshiliklarni ko'rish mumkin. Jumladan, 244¹-moddaning 1-qismida "Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, qirg'in solishga yoki fuqarolarni zo'rlik bilan ko'chirib yuborishga da'vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan materiallarni tayyorlash yoki ularni tarqatish maqsadida saqlash, shuningdek, diniy-ekstremistik, terrorchilik tashkilotlarining atributlarini yoki ramziy belgilarini tarqatish yoxud namoyish etish maqsadida tayyorlash, saqlash" ko'rsatilgan.

Amaliy misollarga nazar solinadigan bo'lsa, fuqaro V. "Telegram" messenjeridagi "+99899 xxx xx xx" raqamli simkartaga rasmiylashtirilgan "BIBILUL" nomli profili ko'zdan kechirilganida, mahalladosh do'stlari bilan birga tashkil qilgan "DUGONALARIM" nomli "Telegram" guruhda, ish bo'yicha o'tkazilgan sudga oid dinshunoslik ekspertizasining 202-sonli xulosasiga ko'ra "Jannatga oshiqlar" nomli aqidaparastlik g'oyalari mavjud hamda mazkur g'oyalarni targ'ib qiluvchi fayllarni internet tarmog'i orqali tarqatib kelayotganligi aniqlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi IIV hamda DXX xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda, X. ismli ayol ishlash maqsadida Rossiya Federatsiyasining Novosibirsk shahriga borib, u yerda ommaviy axborot vositalaridan "Telegram" ijtimoiy tarmog'ida o'zi



foydalanayotgan +795xxxxxxxxx raqamiga ochilgan profili orqali “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mita mutaxassislari”ning xulosasiga ko‘ra, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan ma‘lumotlarni Marhamat tumanida yashovchi fuqaro Sh.ning nomiga ochilgan profiliga yuborish orqali tarqatib kelganligi aniqlanib, undan “Samsung J-7” rusumli uyali aloqa vositasi ashyoviy dalil tariqasida hujjatlashtirib olingan. Har ikkala holatda ham O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 244¹-moddasi bo‘yicha ish qo‘zg‘atilgan.

Binobarin, mazkur holatda asosiy e‘tibor taqiqlangan materiallarni tarqatish yoki saqlashda telekommunikatsiya tarmoqlari hamda maxsus veb-saytlardan foydalanilganligiga qaratiladi. Statistik tahlillarga ko‘ra eng ko‘p jinoiy holat sifatida 244¹-moddaning 3-qismi bo‘yicha jinoiy ish qo‘zg‘atilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Lekin, masalaning ikkinchi tomoni ham borki, 244¹-moddaning 1-qismida diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, qirg‘in solishga yoki fuqarolarni zo‘rlilik bilan ko‘chirib yuborishga da‘vat etadigan yoxud aholi orasida vahima chiqarishga qaratilgan holatlar nazarda tutilgan: hadiksiraydi, bezovta bo‘ladi, ko‘ngli g‘ashlanib, oromi yo‘qoladi, ruhan azob chekadi. Unga kelajakda falokat bo‘lishi muqarrardek, o‘zi yoki yaqinlarining hayoti xavf ostida turgandek tuyuladi.

Vahima turli ruhiy holatlarda o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini anglash ekstremistik faoliyatga qadam qo‘yayotgan yoki ushbu faoliyat bilan uzviy bog‘liq holda harakat qilayotgan shaxslarning qilmishini to‘g‘ri malakalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sud va tergov amaliyotining tahlili yana bir jihatni ko‘rsatadi: ko‘p hollarda arizachining murojaati asosida tergovga qadar tekshiruv o‘tkazilganda, fuqarolarning shaxsiy telefon apparatlari ko‘zdan kechiriladi. Bu jarayonda fuqarolar ta‘qiqlangan materiallarni ijtimoiy tarmoqlardan mustaqil ravishda izlab topganligi yoki ularga tasodifan duch kelib, o‘z qurilmasi xotirasiga (bazasiga) saqlab qo‘yganligi bilan bog‘liq holatlar tez-tez uchramoqda.

Misol uchun, fuqaro P. o‘tkazilgan tezkor tadbir natijasida aniqlanishicha, keyingi paytlarda besh vaqt namoz o‘qishga o‘tishi, gapirishlarida, dunyoqarashida dinga bo‘lgan munosabatning juda chuqurlashganini, qo‘l telefonida arab tilidagi qo‘shiqlarning ko‘pligini ko‘rish mumkin. Tabiiyki, buni eshitgan har qanday ayolda: “Xo‘sh, dinga kirgan, namoz o‘qiyotgan bo‘lsa, nima qilibdi? Axir bu jinoyat emas-ku!” degan fikrlar uyg‘onishi, u ayni shu vajlarni o‘rtaga tashlashi mumkin.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatchilikning darajasi – bu ma‘lum bir davrda va ma‘lum bir hududda ayollar ishtirokida sodir etilgan diniy ekstremizm bilan bog‘liq jinoyatlar yoki ularni sodir etgan ayollar ko‘rsatkichlarining ushbu hududda yashovchi ayollar soni nisbatiga aytiladi. Ya‘ni hududda yashovchi jami ayollarning qancha qismiga nechta ayollar ishtirokida sodir etilgan mazkur jinoyat yoki jinoyatchi ayol soni to‘g‘ri kelishi tushuniladi.

$$A_j \cdot 1000 = A_{j,d}, \\ A_s$$

bu yerda:

A_j – ayollar ishtirokida sodir etilgan jami jinoyatlar soni;

1000 – nisbiy ko‘rsatkich hisoblanib, uning o‘rniga 10, 100 yoki 10000 sonini ham ishlatish mumkin. Bu sonlarni tanlash ma‘muriy hududda yashovchi ayollar sonining qanchalik ko‘p yoki kamligi bilan bog‘liq bo‘ladi;

A_s – ma'muriy hududda yashovchi jami ayollar soni.

$A_{j,d}$ – ayollar jinoyatchiligining darajasi (koeffitsiyenti).

Ayollar tomonidan sodir etiladigan diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatchiligining dinamikasi – bu ma'lum bir davrda va ma'lum bir hududda ayollar ishtirokida sodir etilgan diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar yoki jinoyatchi ayollar ko'rsatkichlarining boshqa davrga nisbatiga aytiladi.

Ayollar jinoyatchiligining dinamikasini aniqlash ham xuddi uning tuzilishini aniqlash kabi muayyan formula asosida ishlashni talab etmaydi. Bu borada muayyan ko'rsatkichlar taqqoslanadi, xolos.

Ayollar tomonidan sodir etiladigan diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatchilikni tahlil etishda bu ijtimoiy hodisaning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini aniqlovchi belgilar asos bo'lib xizmat qiladi. Fikrimizcha, birinchi navbatda ayollar sodir etgan jinoyatlarni tahlil etishda jinoyatlarning tarqalganlik va og'irlik darajasini keltirish mumkin. Jinoyatlarni bu belgilar bo'yicha tasniflash ayollar jinoyatchiligida ro'y bergan asosiy o'zgarishlarni aniqlash imkonini beradi. Yana bir belgi jinoyatning motivi esa ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning xususiyatini yanada chuqurroq tahlil etishga imkon beradi.

Uzoq vaqt mobaynida ayollar jinoyatchiligi tuzilishida jiddiy o'zgarishlar ro'y bermadi, ammo bu tizimga kiruvchi qismlarda o'zgarishlar bo'lgan. Bu hol avvalo, erkaklar va ayollar xulq-atvorining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Ayollar jinoyatchiligi tuzilishidagi sifat o'zgarishlari turli ma'muriy-hududiy bo'linmalarda bir xil bo'lmaydi. Turli viloyatlarda ayollar tomonidan sodir etilayotgan diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlarning turi ham bir xil emas. Masalan, 2020–2025-yillarni taqqoslaydigan bo'lsak, respublikaning ayrim viloyatlarida ayollarning diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatchiligining oldini olish borasidagi ishlar e'tibordan chetda qolganligi natijasida viloyatlar bo'yicha bu turdagi jinoyatchilik ko'rsatkichi respublika miqyosidagi ko'rsatkichlardan ortib ketgan.

Bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan 4,6 foizga kamaygan bo'lsa-da, biroq Farg'ona viloyatida 8,9 foiz, Surxondaryo viloyatida 2,7 foiz, Buxoro viloyatida 0,3 foizga oshganligi kuzatiladi.

Mazkur jinoyatlar viloyatlar kesimida tahlil qilinganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida 12,7 foiz, Navoiy viloyatida 12,6 foiz, Xorazm viloyatida 8,0 foiz, Buxoro viloyatida 5,8 foiz, Surxondaryo viloyatida 2,4 foiz va Toshkent viloyatida 0,5 foizga oshganligi kuzatiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ayollar ko'proq Farg'ona, Surxondaryo va Buxoro viloyatlarida jinoyat sodir etishda ishtirok etganlar.

Darhaqiqat olimlarning ta'kidlashicha, qaysi hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar asta-sekin amalga oshayotgan va aholi turli qatlamlari turmush darajasiga keskin ta'sir ko'rsatmayotgan bo'lsa, o'sha yerda ayollar jinoyatchiligining koeffitsiyenti pastdir (Abdurasulova et al., 2016).

Tadqiqot orqali biz ayollar jinoyatchiligining kriminologik tavsifini berishga, uning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatishga, jinoyatchi ayollarning shaxsini va muayyan ijtimoiy muhit sharoitlarida uning shakllanish mexanizmini ochib berishga, shuningdek, kriminologiyaning eng murakkab muammolaridan biri – huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyat sodir etgan ayollarga jazo tayinlash muammosini hal qilish yo'llarini taklif qilishga harakat qildik. Shu nuqtayi nazardan, ayollar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu quyidagilar bilan izohlanadi:



– so‘nggi yillarda ayollar o‘rtasida jinoyatchilikning rivojlanishida ko‘zga tashlangan tashvishli tendensiyalar;

– jamiyatga, jamiyatdagi ma‘naviy-psixologik muhitga, jamiyatning alohida institutlariga, ayniqsa, oilaviy munosabatlarga ayollar jinoiy xulq-atvorining salbiy ta‘siri ortib borayotgani;

– ayollar o‘rtasida jinoyatchilikning tuzilishida tamagirlik jinoyatlari yetakchilik qilishi, bu jinoiy qilmishlar davlatning iqtisodiy tuzumiga va fuqarolarning shaxsiy mulkiga katta moddiy zarar yetkazayotganligi;

– ayollar jinoyat sodir etishiga turtki beruvchi o‘ziga xos sabablar va shart-sharoitlardan kelib chiqib, izchil profilaktika ishini yo‘lga qo‘yishning zarurligi;

– ayollar o‘rtasida jinoyatchilikning muammolarini ilmiy o‘rganish darajasining pastligi, bu ayollar o‘rtasida jinoyatning oldini olish ishlarini tashkil etishga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgani kabilardan iboratdir (UN Women, 2017a).

Tadqiqot doirasida faqat ayollar o‘rtasidagi jinoyatga xos bo‘lgan va shuning uchun ham uni jinoyatning tuzilishidan alohida hodisa sifatida ajratish imkonini beradigan jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish jinoyati va ularning belgilari, mazmun-mohiyati ochib berildi.

Bu xossalarni g‘ayriqonuniy xulq-atvorning obyektiv ko‘rinishlarini o‘rganishdagina emas, balki ayollar jinoiy faoliyatining xususiyati va bunga turtki beruvchi sabablarni baholashda ham aniqlash mumkin.

Zo‘ravon ekstremizmga qo‘shilgan ayollar orasida faol yetakchilar, yollovchilar ham borki, ular xorijdagi ekstremistik guruhlariga o‘z xohish-istaklari bilan qo‘shilganlar.

Ekstremistlarning gender tenglikka yo‘naltirilgan targ‘iboti ayollarga islom politsiyasiga kirish chog‘ida yuqori martaba, shuningdek, moliyaviy mablag‘larni va‘da qiladi. Shu bilan birga ularni yollovchi sifatida ishlashga ham taklif etishadi (UN Women, 2017b).

Ekstremizm targ‘iboti uchun sudlangan Qozog‘iston fuqarosi bo‘lgan ayol beshta oilani o‘z ichiga olgan guruhga boshchilik qilgan. U Xalqaro terroristik tashkilotlar bilan doimiy muloqotda bo‘lib, Suriyaga bo‘lgan navbatdagi safar chog‘ida qo‘lga olingan. Tojikiston rasmiylari mamlakatdan kamida besh nafar ayolning mustaqil ravishda Suriyaga ketgani haqida xabar berishdi.

Masalan, 34 yoshli dushanbelik ayol Suriyaga boradi, so‘ng boshqa ayollarni yollash maqsadida va erlaridan birini (u uch karra turmush qurgan) olib ketish maqsadida Tojikistonga qaytib keladi. Bu guruhga kirgan ayollarning deyarli barchasi yaxshi ma‘lumot olgan, bir nechta xorijiy tillarda so‘zlasha oladigan, yoshlik chog‘laridan o‘z tengdoshlari orasida yetakchi mavqelarni egallagan, apologetika (diniy aqidalarni himoya qilish, asoslash) masalalarini juda yaxshi tushunadigan va ifoda eta oladigan qobiliyatga ega bo‘lishgan. Ular hiyla-nayrang (manipulyatsiya) texnikasini yaxshi o‘zlashtirish bilan birga suhbatdoshini osongina chalg‘itishlari mumkin, o‘ziga xos alohida qobiliyatlari bilan ko‘pchilikni o‘z ortidan ergashtira oladi (Penal Reform International, 2022).

Xulosa

Xulosa qiladigan bo‘lsak, “Ekstremizm” tushunchasiga berilgan ta‘riflar tahlili asosida, uning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Mafkuraviy, diniy yoki siyosiy maqsadlarga erishishni ko‘zlash; murossasiz keskin qarashlarga asoslanib ish tutishi; o‘z faoliyatida zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlashi yoki undan foydalanishini targ‘ib qilish; jamiyatda o‘rnatilgan yoki uzoq vaqt davomida shakllangan huquqiy va axloq normalariga bo‘ysunmasligi yoki rad etishi; ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy, etnik va boshqa shakldagi adovat

va nizolarni keltirib chiqarishi yoki keltirib chiqarishga harakat qilishi; shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdidlarni keltirib chiqarishi shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi "Ekstremizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasida ekstremistik faoliyat turlari belgilangan bo'lib, "kiber-ekstremizm" tushunchasini kiritish lozim. Jumladan, "*Kiber-ekstremizm – ommaviy axborot vositalaridan yoxud telekommunikatsiya tarmoqlaridan, shuningdek, Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi*", degan tushunchani kiritish lozim.

Bugungi kunda internet va boshqa telekommunikatsiya vositalari orqali ekstremistik g'oyalar jamoatchilikda keng tarqalmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kiber-ekstremizm harakatlari an'anaviy ekstremizmga qaraganda shiddatli va kengroq tarqaladi. Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish orqali ekstremistik g'oyalar ko'plab insonlarga yetib boradi va ularning fikrlarini shakllantiradi.


Kiber-ekstremizm, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan harakatlar sifatida ko'riladi. Ushbu faoliyatlar jamiyatda qo'rquv, ishonchsizlik va nizolarni kuchaytirishi mumkin. Ijtimoiy psixologiya sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn platformalarda tarqatilgan ekstremistik g'oyalar jamoatchilik fikrini o'zgartirishga qodir. "Kiber-ekstremizm" tushunchasini qonuniy ravishda belgilash, bu turdagi faoliyatlarga qarshi kurashishda aniq huquqiy chora-tadbirlarni belgilash imkonini beradi.

REFERENCES

1. Abduhamidov, M. (2022). *Terrorizm va ekstremizmning tezkor qidiruv profilaktikasini boshqarish [Management of operational-search prevention of terrorism and extremism]*. Tashkent.
2. Abdurasulova, Q. R. (2006). *Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari [Criminal-legal and criminological problems of female criminality]* (Doctoral dissertation). Tashkent State Institute of Law.
3. Abdurasulova, Q. R. (2016). *Ayollar o'rtasida jinoyatning sabab va sharoitlari hamda profilaktikasi [Causes, conditions and prevention of crime among women]*. TSUL Publ.
4. Abdurasulova, Q. R., Mirazov, D. M., & Mukhtorov, J. S. (2016). *Ayollar jinoyatchiligining sabab va sharoitlari hamda profilaktikasi [Causes, conditions and prevention of female criminality]*. Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.
5. Akulina, E. A., & Tarlo, E. G. (2003). *Latentnaya prestupnost v Rossiyskoy Federatsii [Latent crime in the Russian Federation]*. MAKS Press.
6. Chernysheva, E. R. (2007). Kriminologicheskaya kharakteristika sostoyaniya, dinamiki i tendentsiy sovremennoy zhenskoy prestupnosti [Criminological characteristics of the state, dynamics and trends of modern female crime]. *Lawyer-Jurist*, (3), 127–131.
7. Explanatory dictionary of the Uzbek language. (2025). *Ekstremizm [Extremism]*. Izoh.uz. <https://izoh.uz/uz/word/ekstremizm>
8. Imlo.uz. (2025). *Ekstremal [Extremal]*. <https://imlo.uz/word/ekstremal>



9. Karimov, I. (2023). "Ekstremizm tushunchasi, shakllari va mohiyati: qiyosiy huquqiy tahlil" faqat diniy bo'ladimi? Dunyoviy ekstremizm nima? [Is the concept, forms and essence of extremism: A comparative legal analysis only religious? What is secular extremism?]. *Lawyer Newsletter*, 4.
10. Malkov, V. D. (Ed.). (2006). *Kriminologiya [Criminology]*. Yuniti-Dana.
11. Panfilova, Yu. S. (2014). *Ekstremizm v virtualnoy srede kak sotsialnaya problema: Otrazhenie v soznanii molodezhi [Extremism in the virtual environment as a social problem: Reflection in the minds of youth]*. Gramota. <https://www.gramota.net/materials/1/2014/9/25.html>
12. Penal Reform International. (2022). *Women involved in violent extremism (Uzbek version)*. Penal Reform International. <https://www.penalreform.org/resource/women-involved-in-violent-extremism/>
13. Republic of Uzbekistan. (2018, July 30). *Law of the Republic of Uzbekistan "On countering extremism" (Law No. LRU-489)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/-3841957>
14. Shiyan, V. I. (2007). Sostoyanie i struktura korystnoy zhenskoy prestupnosti [State and structure of mercenary female crime]. *Russian Investigator*, (19), 27–30.
15. Sukharev, A. Ya., & Girko, S. I. (Eds.). (2005). *Sostoyanie i tendentsii prestupnosti v Rossiyskoy Federatsii [State and trends of crime in the Russian Federation]*. Ekzamen.
16. Tamayev, R. S. (2017). *Ekstremizm i natsionalnaya bezopasnost: pravovye problemy [Extremism and National security: Legal problems]*. LitRes. <https://www.litres.ru/book/r-tamaev/ekstremizm-i-natsionalnaya-bezopasnost-pravovye-problemy-67580066>
17. UN Women. (2017a, June). *Women and violent extremism in Europe and Central Asia: Executive summary and recommendations*.
18. UN Women. (2017b). *Briefing note No. 1: Women recruited into violent extremism*. UN Women Regional Office for Europe and Central Asia.
19. Volodina, N. N. (2014). *Islamiskiy religioznyy ekstremizm: pravovye i filosofskie aspekty [Islamist religious extremism: Legal and philosophical aspects]*. CyberLeninka.
20. Ziyadullayev, A. (2021). *Islom – diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi [Islam is against religious extremism and terrorism]*. Uzun.uz.



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).